



# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGINING YAGONA AKSIYADOR (ISHTIROKCHI) QARORI

20 24 yil "23" iyul \_\_\_\_\_

163/09-2-qr - sonli

Toshkent sh.

## “O‘zmaxsusmontajqurilish” aksiyadorlik jamiyatining 2023-yil moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 58-, 59-moddalari, “O‘zmaxsusmontajqurilish” AJ (keyingi o‘rinlarda – jamiyat) kuzatuv kengashining 2024-yil 9-iyuldagi jamiyatning 2023-yil moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risidagi majlisi bayonnomasi qarori va jamiyatning 2024-yil 11-iyuldagi 01-132/02-09-son murojaatiga asosan, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi **qaror qiladi:**

### 1. Quyidagilar:

#### a) Jamiyatning 2023-yil yakuni bo‘yicha:

**asosiy faoliyatdan boshqa daromadi** 1 509,3 mln. so‘mni tashkil etganligi o‘tgan yilga (1 595,8 mln. so‘m) nisbatan 5,4 foizga kamayganligi, belgilangan (2 005,0 mln. so‘m) reja 75,3 foizga bajarilganligi;

**davr xarajatlari** 1592,8 mln. so‘mni tashkil etganligi o‘tgan yilga (1 586,2 mln. so‘m) nisbatan 6,6 mln. so‘mga ko‘payganligi, belgilangan (1 977,6 mln. so‘m) reja 80,4 foizga bajarilganligi;

**sof foydasi** 18,7 mln. so‘mni tashkil etganligi o‘tgan yilga (115,3 mln. so‘m) nisbatan 83,7 foizga kamayganligi, belgilangan (70,1 mln. so‘m) reja 26,7 foizga bajarilganligi;

**debitorlik** 417,7 mln. so‘mni tashkil etganligi yil boshiga (416,6 mln. so‘m) nisbatan 0,3 foizga ko‘payganligi;

**joriy kreditorlik qarzdorliklari** 99,4 mlrd. so‘mni tashkil etganligi yil boshiga (70,7 mln. so‘m) nisbatan 40,0 foizga ko‘payganligi;

b) jamiyat ijroiya organi faoliyatini samaradorlik muhim ko‘rsatkichlari (KPI) 2023-yilda 51,1 foizni tashkil etganligi;

d) jamiyatning 2023-yil yakunlari bo‘yicha jamiyat kuzatuv kengashining hisoboti tayyorlanganligi;

e) Jamiyatning 2023-yil yakuni bo‘yicha moliyaviy hisobotlari (bugalteriya hisobining milliy standarti hamda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standarti bo‘yicha) haqqoniyligi yuzasidan “Silk Capital” MChJ va “Zamin Oil-AUDIT” MChJ auditorlik tashkilotlarining ijobiy xulosasi olinganligi;

f) "Silk Capital" MChJning xulosasiga ko'ra, jamiyatda korporativ boshqaruv tizimi 148 ball (qoniqarli)ga baholanganligi;

g) jamiyat kuzatuv kengashining 2023-yil 30-noyabrdagi jamiyatning 2024-yil uchun mo'ljallangan biznes-rejasini ma'qullash to'g'risidagi majlis bayoniga asosan, jamiyatning 2024-yil uchun mo'ljallangan biznes-rejasi ko'rib chiqilganligi hamda ma'qullanganligi;

h) jamiyat kuzatuv kengashining 2024-yil 9-iyuldagi jamiyatning 2023-yil moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi majlisida:

jamiyat boshqaruv raisi (A. Shodiyev)ning jamiyatning 2023-yil yakunlari bo'yicha moliya-xo'jalik faoliyati yakuni, jumladan biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi holati to'g'risidagi hisoboti;

jamiyatning 2023-yil moliya-xo'jalik faoliyati va sof foydasi taqsimoti ko'rib chiqilib, ma'qullanganligi **ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

2. Jamiyat kuzatuv kengashining 2023-yil 30-noyabrdagi majlisida jamiyatning 2024-yil uchun mo'ljallangan biznes-rejasi ma'qullanganligini inobatga olib, lovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Jamiyat boshqaruv raisi (A. Shodiyev)ning jamiyatning 2023-yil moliya-xo'jalik faoliyati yakuni, jumladan biznes-reja ko'rsatkichlari bajarilishi holati to'g'risidagi hisoboti ma'qullansin.

4. Jamiyat kuzatuv kengashining 2024-yil 9-iyundagi majlisi qarorini inobatga olib, jamiyatning 2023-yil yakunlari bo'yicha olingan **18 688 200** so'm sof foydasi quyidagicha taqsimlansin:

**50 foiz** (9 344 100 so'm) **dividendga;**

**40,0 foiz** (7 475 300 so'm) jamiyat **zaxira fondiga;**

**10,0 foiz** (1 868 800 so'm) **innovatsiyani rivojlantirish fondiga.**

5. Jamiyatning kelgusida debitor va kreditor qarzdorliklarni kamaytirish hamda biznes reja ko'rsatkichlari va samaradorlikning muhim ko'rsatkichlarini bajarish sharti bilan jamiyatda 2014-yildan buyon, boshqaruv lavozimida ishlab kelayotgan A'zamjon Xoshimovich Shodiyev bilan tuzilgan mehnat shartnomasi amalda bo'lgan muddatga qoldirilsin.


6. Jamiyat boshqaruv raisi A. Shodiyev:

jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini yaxshilash, 2024-yilga mo'ljallangan biznes-reja ko'rsatkichlarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati yakuni, jumladan biznes-rejaning asosiy ko'rsatkichlari bajarilishi haqidagi hisobotni har chorakda jamiyat kuzatuv kengashiga taqdim etib borilishini ta'minlasin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktorining birinchi o'rinbosari N. Xusanov zimmasiga yuklansin.

Direktor



A. Ortikov